



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARDAN BARQAROR FOYDALANISHNING
SIYOSIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI VA ULARNING FALSAFIY-MA'NAVIY ASOSLARI



2-IYUN
2026-YIL



Qo'qon shahri,
Qo'qon davlat universiteti



Xalqaro
miqyosda



TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARNI BOSHQARISHNING TARIXIY-HUQUQIY ASOSLARI: MARKAZIY OSIYO TAJRIBASI

O'sarova Sevara

Qo'qon davlat universiteti Gumanitar fanlar va tillar fakulteti
Milliy g'oya va huquq ta'limi yo'nalishi 01/25 guruh talabasi

B.J.Shamsiddinov

Qo'qon davlat universiteti Falsafa va dinshunoslik kafedrası
burxonjonshamsiddinov2101@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv resurslarini (asosan Amudaryo va Sirdaryo havzalarini) boshqarishning tarixiy rivoji va huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Sovet davridagi mexanizmlardan mustaqillik davriga o'tish, xalqaro konvensiyalar va mintaqaviy kelishuvlarning roli ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: transchegaraviy suvlar, huquqiy mexanizmlar, Almaty kelishuvi, Amudaryo, Sirdaryo, suv diplomatiyasi.

Kirish

Markaziy Osiyoda transchegaraviy gidroresurslar masalasi nafaqat ekologik, balki chuqur tarixiy-huquqiy xarakterga ega. Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik daryolar bir necha davlatlar hududidan oqib o'tadi va ularning suvlaridan foydalanish mintaqa barqarorligini belgilovchi omilga aylangan. Ushbu maqolada transchegaraviy suv resurslarini boshqarishning tarixiy-huquqiy asoslari tahlil etiladi.

Suv resurslarini boshqarishning tarixiy ildizlari Sovet Ittifoqi davriga borib taqaladi. 1960-1980-yillarda SSSR hukumati suv taqsimotini markazlashgan tarzda amalga oshirgan. Sirdaryo va Amudaryo havzalari uchun maxsus protokollar (masalan, 1984-yilgi 413-protokol va 1987-yilgi 566-protokol) qabul qilingan.² Bu hujjatlar suvni asosan irrigatsiya ehtiyojlariga qarab taqsimlagan: O'zbekiston va Qozog'iston suvning katta qismini olgan, Tojikiston va Qirg'iziston esa gidroenergiya ishlab chiqarishga e'tibor qaratgan.

Sovet davrida suv havzalarini boshqarish uchun maxsus tuzilmalar — Havza suv xo'jaligi boshqarmalari (BVO) tashkil etilgan. Bu tizim suvni "umumxalq mulki" sifatida ko'rib, markazlashgan rejalashtirishga asoslangan edi¹. Amalda esa bu tizim paxta yetishtirish manfaatlarini ustuvor qo'yib, ekologik muammolarni kuchaytirgan va respublikalar o'rtasidagi ziddiyatlarni to'liq bartaraf eta olmagan.

1991-yildan keyin sobiq ittifoq respublikalari o'rtasida yangi huquqiy munosabatlar shakllandi. Eng muhim hujjat — 1992-yil 18-fevraldagi Almaty kelishuvi ("Suv resurslarini birgalikda boshqarish, foydalanish va muhofaza qilish to'g'risida")³. Bu kelishuv Sovet davridagi suv taqsimoti kvotalarini saqlab qoldi va Davlatlararo suv muvofiqlashtirish komissiyasini tashkil etgan.

Keyingi muhim kelishuvlar 1993-yil — Orol dengizi muammosini hal qilish bo'yicha 5 ta davlat o'rtasidagi kelishuv va 1998-yil — Sirdaryo havzasi suv-energetika resurslaridan foydalanish to'g'risidagi kelishuv (Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston). Meni fikrimcha hujjat suv taqsimoti va energetika manfaatlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, amaliyotda kompensatsiya mexanizmlarining bajarilmasligi sababli muammolar saqlanib qoldi. Kelishuv 1998-yilda tuzilgan va o'sha paytdagi suv miqdorini hisobga olgan. Keyingi yillarda muzliklar erishi va qurg'oqchilik kuchaygani sababli suv hajmi kamaygan, lekin kelishuv mexanizmlari buni hisobga olmagan.

Xalqaro miqyosda Markaziy Osiyo davlatlari BMTning Transchegaraviy suv oqimlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiyasi (1997-yil) va UNECE Suv konvensiyasi (1992-yil) ga qo'shilgan. Xususan, O'zbekiston 1997-yilgi Konvensiyaga 2007-yil 4-sentabrda qo'shildi. Bu hujjatlar "adolatli va oqilona foydalanish", "zarar yetkazmaslik" va "hamkorlik" tamoyillarini belgilab, transchegaraviy suv resurslarini boshqarishning zamonaviy huquqiy asoslarini yaratadi. Ushbu konvensiyalarga qo'shilish ijobiy qadam bo'lsa-da, ularning mintaqaviy sharoitlarga to'liq moslashtirilishi va barcha davlatlar (shu jumladan Afg'oniston) ishtirokini ta'minlash hali ham dolzarb masaladir.

Tarixiy-huquqiy asoslar yetarli bo'lishiga qaramay, bir qator muammolar saqlanmoqda:

Suv taqsimotida manfaatlar to'qnashuvi (yuqori oqimdagi davlatlar — gidroenergiya, quyi oqimdagi davlatlar — irrigatsiya), Afg'onistonning Amudaryo havzasidagi faollashuvi, iqlim o'zgarishi va muzliklar erishi, ma'lumotlar almashinuvi va monitoring mexanizmlarining yetarli emasligi.

Transchegaraviy gidroresurslarni boshqarishning huquqiy asoslarini takomillashtirish uchun quyidagilar zarur:

Mavjud kelishuvlarni zamonaviy talablarga moslashtirish;

BMT konvensiyalari normalarini to'liq joriy etish;

Qo'shma monitoring va ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish;

Suv diplomatiyasini rivojlantirish orqali ishonchni mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv resurslarini boshqarishning huquqiy asoslari Sovet davrida boshlangan. O'sha paytda BVO tizimi va 1984, 1987-yillardagi protokollar orqali suv taqsimlangan. Mustaqillikdan keyin esa 1992-yil Almaty kelishuvi, 1993-yil Orol kelishuvi va 1998-yil Sirdaryo kelishuvi kabi muhim hujjatlar qabul qilindi.

Bu kelishuvlar dastlab yordam bergan bo'lsa-da, hozirgi vaqtda yetarli emas. Iqlim o'zgarishi, suv kamayishi, Afg'onistonning yangi kanallari va davlatlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi kabi muammolar paydo bo'ldi.

Xalqaro darajada O'zbekiston BMTning 1997-yilgi suv konvensiyasiga 2007-yilda qo'shildi. Bu yaxshi qadam, lekin konvensiyalarni bizning mintaqaga sharoitiga to'liq moslashtirish va Afg'onistonni ham hamkorlikka jalb qilish hali ham katta muammo bo'lib turibdi.

Natijada, suv masalasini faqat qog'ozdagi kelishuvlar bilan hal qilib bo'lmaydi. Davlatlar o'rtasida ishonch, ochiq ma'lumot almashinuvi va yangi zamonaviy yondashuvlar kerak. Qo'qon universitetidagi konferensiya shu kabi muammolarni muhokama qilish va yechim topishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar:

1. 1992-yil Almaty kelishuvi va keyingi hujjatlar.
2. BMT suv konvensiyalari;
3. Markaziy Osiyo olimlarining tadqiqotlari (ISRS, IWMI va boshqalar).
4. ¹ CAWater-Info rasmiy bazasi va D. Ziganshina (2023) tadqiqoti.
5. ²CAWater-Info (<https://www.cawater-info.net>)
6. ³ICWC rasmiy sayti — <http://www.icwc-aral.uz/statute1.htm>